

ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILAR NUTQINI  
RIVOJLANTIRISH METODIKASI

**Xudoyberdiyeva Dilafruz Abidovna**

*Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti dotsenti*

**Ikramova Nafisa Abdurashid qizi**

*Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti*

*"Boshlang'ich ta'lim" yo'nalishi 4-bosqich talabasi*

**Annotatsiya**

*Mazkur maqolada ona tili darslarida o'quvchilar nutqini rivojlantirishning samarali metod va usullari yoritilgan. Unda o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini boyitish, ularning fikrlash doirasini kengaytirish hamda mustaqil fikr bayon etish ko'nikmalarini shakllantirish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, dars jarayonida interfaol metodlardan foydalanish, matn ustida ishlash, so'z boyligini oshirishga qaratilgan mashqlar tizimi hamda o'qituvchining roli haqida muhim tavsiyalar berilgan. Maqola ona tili o'qituvchilari uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lib, o'quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirishda qo'llaniladigan samarali yondashuvlarni o'z ichiga oladi.*

**Kalit so'zlar:** *ona tili, nutqni rivojlantirish, og'zaki nutq, yozma nutq, interfaol metodlar, so'z boyligi, nutq madaniyati, mustaqil fikrlash, matn ustida ishlash, pedagogik yondashuvlar*

**Abstract**

*This article discusses effective methods and techniques for developing students' speech in native language lessons. It analyzes the issues of enriching students' oral and written speech, expanding their thinking, and forming independent expression skills. It also provides important recommendations on the use of interactive methods in the lesson process, working on the text, a system of exercises aimed at increasing vocabulary, and the role of the teacher. The article is of practical importance for native language teachers and includes effective approaches used in developing students' speech culture.*

**Keywords:** *mother tongue, speech development, oral speech, written speech, interactive methods, vocabulary, speech culture, independent thinking, work on the text, pedagogical approaches*

Hozirgi zamon ta'lim tizimida o'quvchilarning nutqini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ona tili darslari bu jarayonda yetakchi o'rin tutib, o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini shakllantirish, ularning fikrini aniq va ravon ifoda etish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Nutq – tafakkur mahsuli bo'lib, uni rivojlantirish orqali o'quvchilarning dunyoqarashi, muloqot madaniyati va mustaqil fikrlash qobiliyati ham takomillashadi.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanish nutqni rivojlantirish samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib

xizmat qilmoqda. Shu bois, ona tili darslarida o'quvchilarning nutqini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish, samarali usullarni aniqlash va amaliyotga joriy etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Mazkur maqolada ona tili darslarida o'quvchilar nutqini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari, metod va vositalari tahlil qilinadi hamda ularni dars jarayonida qo'llash bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Boshlang'ich ta'limda ona tili fanining o'qitilishi o'quvchilar uchun juda muhim hisoblanadi. Boshlang'ich ta'limda ona tilini o'qitish o'quvchilarning savodxonligini (o'qish va yozish), nutqini, lug'at boyligini oshirish hamda fikrni to'g'ri, aniq, ravon bayon eta olish ko'nikmalarini shakllantirish uchun zarurdir. Bu fan milliy va ma'naviy qadriyatlarni o'rgatadi, muloqot qobiliyatini rivojlantiradi va ta'limning keyingi bosqichlariga poydevor bo'ladi.

Asosiy sabablar va ahamiyati:

**1. Savodxonlikni shakllantirish**-Boshlang'ich sinflarda ona tili darslari orqali o'quvchilar o'qish va yozishni o'rganadilar. Harflarni tanish, bo'g'inlab o'qish, to'g'ri yozi sh va matnni tushunish ko'nikmalari rivojlanadi. Bu esa boshqa barcha fanlarni o'rganish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

**2. Fikrni to'g'ri ifodalashni o'rgatadi**-Ona tili darslari bolalarga o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda aniq va ravon ifodalashni o'rgatadi. O'quvchilar gap tuzish, hikoya qilish, savollarga javob berish va muloqot qilishni o'rganadilar.

**3. Tafakkur va mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi**-Til orqali inson fikrlaydi. Ona tili darslari davomida o'quvchilar taqqoslash, tahlil qilish, xulosa chiqarish kabi fikrlash jarayonlarini rivojlantiradilar. Bu esa ularning umumiy intellektual rivojlanishiga yordam beradi.

**4. Milliy qadriyat va madaniyatni o'rgatadi**-Ona tili orqali bolalar xalqning urf-odatlarini, an'analari, madaniyati va ma'naviy qadriyatlarini bilan tanishadilar. She'rlar, ertaklar, hikoyalar orqali ular milliy merosni bilib boradilar.

**5. Boshqa fanlarni o'rganishga yordam beradi**-Agar o'quvchi yaxshi o'qib tushuna olsa, u matematika, tabiatshunoslik, tarix kabi fanlarni ham osonroq o'zlashtiradi. Chunki ko'p bilimlar matn orqali beriladi.

**6. Nutq madaniyatini shakllantiradi**-Ona tili darslari bolalarda to'g'ri talaffuz qilish, adabiy til me'yorlariga rioya qilish va chiroyli gapirish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Boshlang'ich ta'limda ona tilini o'qitish o'quvchilarning savodxonligini, fikrlash qobiliyatini, nutq madaniyatini va milliy ongini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli ona tili boshlang'ich ta'limning eng asosiy fanlaridan biri hisoblanadi.

Nutq — kishi faoliyatining turi, til vositalari (so'z, so'z birikmasi, gap) asosida

tafakkurni ishga solishdir. Nutq o'zaro aloqa va xabar, o'z fikrini his-hayajon bilan ifodalash va boshqalarga ta'sir etish vazifasini bajaradi. Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishi faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. O'quvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olish quroli hisoblanadi.

Nutq o'stirish nima?

Agar o'quvchi va uning tildan bajargan ishlari ko'zda tutilsa, nutq o'stirish deganda tilni har tomonlama (talaffuzi, lug'ati boyligi, sintaktik qurilishini, bog'lanishli nutqni) faol amaliy o'zlashtirish tushuniladi. Agar o'qituvchi ko'zda tutilsa, nutq o'stirish deganda, o'quvchilarning tilning talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishi va bog'lanishli nutqni faol egallashlariga yordam beradigan metod va usullarni qo'llash tushuniladi. Shuning uchun ham grammatika va imlo dasturi tovushlar va harflar, so'z, gap, bog'lanishli nutq kabi qismlarni o'z ichiga olgan. Ona tili dasturining bo'limlari „Xat-savod o'rgatish va nutq o'stirish“, „O'qish va nutq o'stirish“, „Grammatika, imlo va nutq o'stirish“ deb nomlangan. Nutq faoliyati uchun, shuningdek o'quvchilar nutqini o'stirish uchun bir

necha shartga rioya qilish zarur:

1. Kishi nutqining yuzaga chiqishi uchun talab bo'lishi kerak. O'quvchilar nutqini o'stirishning metodik talabi o'quvchi o'z fikrini, nimanidir og'zaki yoki yozma bayon qilish xohishini va zaruriyatini yuzaga keltiradigan vaziyat yaratish hisoblanadi.

2. Har qanday nutqning mazmuni, materiali bo'lishi lozim. Bu material qanchalik to'liq, boy, qimmatli bo'lsa, uning bayoni shunchalik mazmunli bo'ladi. Shunday ekan, o'quvchilar nutqini o'stirishning ikkinchi sharti nutqqa oid mashqlarning materiali haqida bo'lib, o'quvchi nutqi mazmunli bo'lishi uchun g'amxo'rlik qilish hisoblanadi.

3. Fikr tinglovchi tushunadigan so'z, so'z birikmalari, gap, nutq birliklari yordamida ifodalansagina tushunarli bo'ladi. Shuning uchun nutqni muvaffaqiyatli o'stirishning uchinchi sharti — nutqni til vosi talari bilan qurollantirish hisoblanadi. O'quvchilarga til namunalarini berish, ular uchun yaxshi nutqiy sharoit yaratish zarur. Nutqni eshitish va undan o'z tajribasida foydalanish natijasida bolalarda ta'lim metodikasi asoslanadigan ongli ravishda „tilni sezish“ shakllanadi. Nutq o'stirishning metodik sharti nutqiy faoliyatning keng tizimini yaratish, ya'ni, birinchidan, yaxshi nutq namunasini idrok etish, ikkinchidan, o'rgangan til vositalaridan foydalanib, o'z fikrini bayon etish uchun sharoit yaratish hisoblanadi. Bola tilni nutqiy faoliyat jarayonida o'zlashtiradi. Buning o'zi yetarli emas, chunki u nutqni yuzaki o'zlashtiradi.

Nutqni egallashning qator aspektlari mavjud. Bular:

1. Adabiy til me'yorlarini o'zlashtirish. Maktab o'quvchilarini adabiy tilni sodda so'zlashuv tilidan, sheva va jargondan farqlashga o'rgatadi, adabiy tilning badiiy, ilmiy, so'zlashuv variantlari bilan tanishtiradi.

2. Jamiyatimizning har bir a'zosi uchun zarur bo'lgan muhim nutq malakalarini, ya'ni o'qish va yozish malakalarini o'zlashtirish. Bu bilan o'quvchilar yozma nutqning xususiyatlarini, uning og'zaki so'zlashuv nutqidan farqini bilib oladi.

3. O'quvchilarning nutq madaniyatini takomillashtirish. Til jamiyatdagi eng muhim aloqa vositasidir. Tilning mana shu ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqib, maktabda o'quvchilarning nutq madaniyatiga alohida e'tibor beriladi. Bu vazifalarni bajarish uchun o'qituvchi o'quvchilar bilan rejali ish olib borishi lozim. Buning uchun esa o'quvchilar nutqini o'stirish ustida ishlash tushunchasiga nimalar kirishini bilib olish

muhimdir. Nutq o'stirishda uch yo'nalish aniq ajratiladi: 1) so'z ustida ishlash; 2) so'z birikmasi va gap ustida ishlash; 3) bog'lanishli nutq ustida ishlash. So'z, so'z birikmasi va gap ustida ishlash uchun lingvistik baza bo'lib leksikologiya (frazologiya va stilistika bilan birgalikda), morfologiya, sintaksis xizmat qiladi; bog'lanishli nutq esa mantiqqa, adabiyotshunoslik va murakkab sintaktik butunlik lingvistikasiga asoslanadi. Ko'rsatilgan uch yo'nalish parallel olib boriladi: lug'at ishi gap uchun

material beradi; so'z, so'z birikmasi va gap ustida ishlash bog'lanishli nutqqa

tayyorlaydi. O'z navbatida, bog'lanishli hikoya va insho lug'atni boyitish vositasi bo'lib xizmat qiladi. O'quvchilar nutqini o'stirish o'z metodik vositalariga ega, o'zining mashq turlari bor. Bulardan eng muhimlari bog'lanishli nutq mashqlari hisoblanadi. Nutq o'stirishda izchillik to'rt shartni, ya'ni mashqlarning izchilligi, istiqboli, xilma-xilligi, xilma-xil mashq turlarini umumiy maqsadga bo'ysundirish ko'nikmasini amalga oshirish bilan ta'minlanadi. Har bir yangi mashq oldingisi bilan bog'lanadi va keyingisiga o'quvchilarni tayyorlaydi, umumiy maqsadga bo'ysungan holda yana qandaydir yangilik qo'shadi. Maktabda o'quvchilar nutqini o'stirishga ona tili o'qitishning asosiy vazifasi deb qaraladi. Nutq o'stirish faqat ona tili va o'qish darslarininggina emas, balki o'quv rejasidagi barcha fanlar (tabiatshunoslik, matematika, mehnat, tasviriy san'at, ashula darslari)ning, shuningdek, sinfdan tashqari o'tkaziladigan tadbirlarning ham vazifasidir.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, nutq o'stirish- faqatgina o'qituvchi va o'quvchilarga emas, balki har bir insonda, har bir sohada muhim hisoblanadi. Axir, insonni hayvonlardan farqli jihati bu uning so'zlay olishida, nutqida hisoblanadi. Nutqni so'zlovchi tomonidan tinglovchilarga aniq, chiroyli, ravon yetkazib berish ham nutq san'ati deyiladi.

2. O'quvchilarning nutqini o'stirishda turli xil qiziqarli interfaol metodlardan foydalansa bo'ladi. Bular orqali yanada samaraliroq natija ko'rsatadi.

Quyida ona tili darslarida qo'llansa bo'ladigan nutqni o'stirishda yordam beradigan eng samarali va foydali bo'ladigan interfaol metodlarni keltirib o'taman.

### **“Davra suhbatı” metodi**

Aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan tarbiyalanuvchilar tomonidan o'z fikr mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o'qitish metodidir.

**“Davra suhbatı” metodi** -qo'llanganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir tarbiyalanuvchilarning bir-biri bilan „ko'z aloqasini“ni o'rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og'zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og'zaki davra suhbatida tarbiyachi mavzuni boshlab beradi va tarbiyalanuvchilar ushbu savol bo'yicha o'z fikr mulohazalarini bildirishlarini so'raydi va aylana bo'ylab har bir tarbiyalanuvchi o'z fikr mulohazalarini og'zaki bayon etadilar. So'zlayotgan tarbiyalanuvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo'lsa barcha fikr-mulohazalar tinglab bo'lingandan so'ng muhokama qilinadi. Bu esa tarbiyalanuvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq rivojlanishiga yordam beradi.

### **“Bahs munozara”metodi**

Biror mavzu bo'yicha tarbiyalanuvchilar bilan o'zaro bahs, fikr almashinuv tarzida o'tkaziladigan o'qitish metodidir.

Har qanday mavzu va muammolar mavjud bilimlar va tajribalar asosida muhokama qilinishi nazarda tutilgan holda ushbu metod qo'llanadi. Bahs munozarani boshqarib borish vazifasini tarbiyalanuvchilarning biriga topshirishi yoki tarbiyachining o'zi olib borishi mumkin. Bahs munozara erkin holatda olib borish va har bir tarbiyalanuvchilarni munozaraga jalb etishga harakat qilish lozim. Ushbu metod olib borilayotgan tarbiyalanuvchilar orasida paydo bo'ladigan nizolarni darhol bartaraf etishga harakat qilish kerak.

“Bahs munozara” metodini o'tkazishda quyidagi qoidalarga amal qilish kerak;

-barcha tarbiyalanuvchilar ishtirok etishi uchun sharoit yaratish mumkin

-, o'ng qo'l qoidasiga rioya qilish

-fikr g'oyalarni tinglash madaniyati

-bildirilgan fikr-g'oyalarning takrorlanmasligi

-bir-biriga o'zaro hurmat

### **Rasmiy ketma-ketlik orqali hikoya tuzish**

Mazmuni:

O'qituvchi bolalarga bir voqeani ifodalovchi bir nechta rasm kartochkalarini beradi. O'quvchilar rasmlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirib, hikoya tuzadilar.

Maqsadi: O'quvchilarning nutqini ravon, chiroyli, izchil bayon qilishni o'rgatadi. So'zlab berish, hikoya qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. O'quvchilarni aqlini va tafakkurini faollashishiga yordam beradi.

Qo'llash usuli:

Rasmlar aralashtirib beriladi.

O'quvchi rasmlarni tartibga soladi.

Har bir rasm asosida gap yoki kichik hikoya tuzadi.

### **“Ko'rsat va ayt” (Show and Tell) metodi**

Bu usul boshlang'ich sinflarda keng qo'llaniladi. Unda o'quvchi biror buyumni ko'rsatib, u haqida gapirib beradi.

Bajarilish tartibi:

O'quvchi uyidan bir buyum olib keladi (o'yinchoq, kitob va boshqalar).

Uni sinfga ko'rsatadi.

Nima uchun tanlagani, qayerdan olgani haqida hikoya qiladi.

Natijasi:

Bu metod orqali o'quvchilarning og'zaki nutqi rivojlanadi. Jamoa oldida gapirish ko'nikmalari shakllanadi. O'quvchilar o'z fikrini bemalol qo'rqmasdan bayon etishni o'rganishadi.

### **“Birgalikda hikoya tuzish” o'yini**

Mazmuni:

O'quvchilar navbat bilan hikoyani davom ettiradilar.

O'yin qoidasi:

O'qituvchi hikoyaning boshlanishini aytadi.

Har bir o'quvchi bittadan gap qo'shadi.

Oxirida umumiy hikoya hosil bo'ladi.

Foydasi:

Boshlang'ich ta'lim o'quvchilariga bu metod juda samarali hisoblanadi. Chunki bu metod orqali o'quvchilarda muloqot ko'nikmalari rivojlanadi. Tasavvur qilish boyligi kengayadi. Nutqning ravonligi oshadi.

### **“Kim tezroq gap tuzadi?” o'yini**

Usuli: O'qituvchi bir nechta so'zlarni aytadi.

O'quvchilar shu so'zlardan foydalanib tezda gap tuzadi.

Misol: So'zlar: bola, bog', kitob

Gap: Bola bog'da kitob o'qiyapti.

Natija: Ushbu usul bilan bolalarning so'z boyligi oshadi. Grammatik jihatdan to'g'ri gap tuzish qobiliyati rivojlanadi.

### **Rolli o'yin (drama metodi)**

Mazmuni: O'quvchilar ertak yoki voqeani rollarga bo'lib ijro etadilar.

Misol: “Bo'g'irsoq” ertagini sahnalashtirish

“Do'konda”, “Maktabda” kabi dialoglar

Foydasi: Bu metod orqali bolalarning dialogik nutqi rivojlanadi. O'z fikrini ifodalashni osonlashadi. O'quvchilar darsda faollashadi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini rivojlantirishda rasmi kartochkalar, hikoya tuzish o'yinlari, rolli o'yinlar va “ko'rsat va ayt” metodlari juda samarali hisoblanadi. Bunday metodlar o'quvchilarning so'z boyligini oshiradi, muloqot madaniyatini rivojlantiradi va ijodiy fikrlashni kuchaytiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bu maqolada ta'lim jarayonida o'quvchilarning nutqini rivojlantirish, fikrlash qobiliyatini oshirish va ularni faol ishtirok etishga undovchi samarali metodlar yoritilgan. Xususan, “bahs-munozara”, “rasmi ketma-ketlik orqali hikoya tuzish”, “davra suhbat”, “kim tezroq gap tuzadi?”, “rolli o'yin” hamda “ko'rsat va ayt metodlari o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, nutq ravonligi va muloqot madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu usullar orqali o'quvchilar o'z fikrini erkin bayon qilishni, boshqalarni tinglashni va hurmat qilishni o'rganadilar. Natijada, dars jarayoni yanada qiziqarli, samarali va interfaol tus oladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1.D.R. Babayeva “Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi”, “Barkamol fayz media” nashriyoti, Toshkent 2018

2.<https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/tilshunoslik/maktabda-o-quvchilar-nutqini-o-stirish-bilimini-nazorat-qilish-metodikasi>

3. <file:///C:/Users/HP/Downloads/2440-%D0%A2%D0%B5%D0%BA%D1%81%D1%82%20%D1%81%D1%82%D0%B0%D1%82%D1%8C%D0%B8-6906-1-10-20230426.pdf>
4. <https://cyberleninka.ru/article/n/ona-tili-darslarida-nutqni-rivojlantirish-usullari/viewer>
5. <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/137869>